

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON  
ILLOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Sh.T.Mavlonova**

Inklyuziv ta'lif o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik-psixologik, ijtimoiy xususiyatlari ..... 214

**Z.M.Xursanova**

Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirish mazmuni ..... 219

**A.B.Mirzayev**

Effective ways to use the task-based approach in foreign language courses ..... 223

**Sh.A.Pakirdinova**

Blended learning texnologiyasining nazarij asoslari va uning ta'lif jarayonida ahamiyati ..... 226

**Sh.A.Pakirdinova**

Comparative analysis of online and traditional classroom learning ..... 231

**M.M.Umaralieva**

Fostering autonomy and engagement in higher education: self-regulated learning with multimedia tools ..... 235

**Z.N.Usmonov**

Maktabgacha tarbiya muassasalaridagi bolalar jismoniy tarbiysi ..... 239

**A.T.Akbarov**

Turli maktab yoshidagi o'quvchilar organizmining funksional holatini o'ziga xos xususiyatlari ..... 246

**U.K.Rahmonov**

Musiqa madaniyat darslarini olib borishda ta'lif beruvchining o'rni ..... 252

**U.K.Rahmonov**

Musiqa darslarida zamonaliv texnologiyalarni qo'llashda loyiha texnologiyasini ahamiyati ..... 256

**V.Abdurakhmanov**

"The challenges of teaching english to international students" ..... 261

**D.Y.Irmatov**

Tarbiyachining kasbiy nazari va kasbiy amaliy tayorgarligi mazmuni monitoringi va maktabgacha ta'lif yoshidagilar "Ontogonez"iga mansub bilimlar ..... 265

**Н.Собиров, О.А.Акбаров, Э.Ф.Гиздулин**

Инновационная педагогическая деятельность ..... 269

---

**IQTISODIYOT****M.O.Baltabayeva, K.N.Raximova, M.K.Axmadiyeva**

Ayollarning iqtisodiy mustaqilligi oilaning yaxshi yashashiga qo'shgan hissasi ..... 273

**K.N.Raximova, M.O.Baltabayeva, M.K.Axmadiyeva**

Yashil iqtisodiyot fanida yashil iqtisodiyotga o'tish dolzarbliji va konseptual asoslari ..... 276

---

**FALSAFA****N.M.Axmadiyev**

Ijtimoy rivojlanish va yoshlarni dunyoqarashida manfatlar to'qnashuvi ..... 281

**I.Tairov**

Milliy davlatchilik asoslарини mustaxkam�ash va fuqarolik jamiyati barpo etishning falsafiy jihatlari ..... 284

**I.A.Nurmatova**

Jamiyat ma'naviy muhitida oila institutining roli ..... 289

---

**SIYOSAT****B.P.Zokirov**

Jinoiy aktivlarni qaytarish bo'yicha universal va mintaqaviy xalqaro-huquqiy asoslari ..... 293

**S.M.Xoliqov**

Davlatning mudofaa qobiliyatining huquqiy asoslari ..... 301

**B.P.Zokirov**

Xorijiy ilg'or tajribalar jinoiy aktivlarni qaytarish mexanizmlarini rivojlantirishning muhim omil sifatida ..... 304

**S.M.Xoliqov**

Milliy xavfsizlikni ta'minlashda parlament quyi palatasi faoliyatidagi muammolar ..... 314



UO'K: 343.2

**XORIJY ILG'OR TAJRIBALAR JINOIY AKTIVLARNI QAYTARISH MEXANIZMLARINI  
RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMIL SIFATIDA**

**ПЕРЕДОВОЙ ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ МЕХАНИЗМОВ  
ВОЗВРАТА ПРЕСТУПНЫХ АКТИВОВ**

**ADVANCED FOREIGN EXPERIENCE AS AN IMPORTANT FACTOR IN THE DEVELOPMENT  
OF MECHANISMS FOR THE RETURN OF CRIMINAL ASSETS**

**Zokirov Botirjon Pulatxujayevich**  
Mustaqil izlanuvchi

**Annotatsiya**

*Maqolada jinoiy aktivlarni qaytarishning protsessual mexanizmi bo'yicha rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi, shu jumladan, Yevropa Ittifoqi, AQSH, Kanada, Avstraliya, Yaponiya, Isroil, Niderlandiya, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'istonning ilg'or tajribalari, qonunchilik asoslari, vakolatli davlat organlari faoliyati bo'yicha ijobjiy misollar keltirilib, mazkur sohani rivojlantrish bo'yicha tavsiyalar keltirib o'tilgan.*

**Аннотация**

В статье приведены положительные примеры опыта развитых зарубежных стран по процессуальному механизму возврата преступных активов, в том числе практики Евросоюза, США, Канады, Австралии, Японии, Израиля, Нидерландов, Российской Федерации. Приведены законодательная база Казахстана и рекомендации по деятельности компетентных государственных органов по развитию отрасли.

**Abstract**

*The article provides positive examples of the experience of developed foreign countries on the procedural mechanism for the return of criminal assets, including the practices of the European Union, the USA, Canada, Australia, Japan, Israel, the Netherlands, the Russian Federation, the legislative framework of Kazakhstan and recommendations for the activities of competent government agencies to develop the industry are provided.*

**Kalit so'zlar:** Jinoiy aktiv, aktivlarni qaytarish, protsessual mexanizmi, xorijiy tajriba, qonunchilik asoslari, vakolatli davlat organi, moliyaviy choralar, elektron o'tkazmalar.

**Ключевые слова:** Криминальный актие, возврат активов, процессуальный механизм, зарубежный опыт, правовая база, уполномоченный государственный орган, финансовые меры, электронные переводы.

**Key words:** Criminal asset, asset recovery, procedural mechanism, foreign experience, legal framework, authorized government agency, financial measures, electronic transfers.

**KIRISH**

Xorijiy mamlakatlar tajribasining barcha jihatlarini ko'rib chiqish natijasida chet elda aktivlarni qidirish, musodara qilish tizimi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishga hamda uning kuchli va zaif tomonlarini baholashga imkon beradi. Aktivlarni noqonuniy olib chiqib ketish yuqori professional firibgarlik sxemalari bilan sodir etilishi sababli ularni fosh etish murakkab moliyaviy va tergov jarayonlarning majmuasi hisoblanadi. Raqamli texnologiya va elektron pul o'tkazmalari tizimida, davlat idoralari va boshqa davlatlar o'rtasida ma'lumot almashish, qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirishda eskirgan prinsiplarga asoslanishi natijasida huquq-targ'ibot idoralari xodimlari jinoyatchilardan doimo orqada qoladilar[1].

Ba'zi davlatlarda aktivlarni qaytarish protsessual jarayonlarining elementi bo'lmish "umumiyl tartibda musodara qilish" ko'proq amaliyatda qo'llaniladi, ba'zi davlatlarning qonunlarida esa "maxsus musodara"ning jinoiy-protsessual jihatlari batafsilroq tartibga solinadi.

## SIYOSAT

Shunga qaramay, dunyoning aksariyat mamlakatlari qonunlarida sud hukmi bilan jinoyatchilik quroli, jinoiy yo'l bilan olingen mol-mulk, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingen daromadlarni musodara qilish imkoniyati to'g'risidagi qiyosiy standartlar mavjud.

Aynan shu sohadagi jinoyat ishlarida aktivlarni qidirushi, taqiqqa solish, musodara qilish va so'rالayotgan davlatga topshirish yuzasidan davlatlar o'zaro hamkorlikda huquqiy yordam ko'rsatadilar.

Aktivlarni qaytarish jarayonlariga misol tariqasida Yevropa Ittifoqi mamlakatlarini ko'rish mumkin. 2010-yilda chop etilgan Yevropa Kengashining Ichki boshqaruv direksiyasining "Jinoiy xususiyatga ega daromadlar bilan muomalada bo'lish haqidagi tavsiyalari"da ko'rsatilgan[1].

Ittifoq davlatlarida jinoiy daromadlarni qaytarishning tashkiliy hamda normativ jihatlarining tarkibi quyidagilardan iborat:

- 1) jinoiy daromadlarni aniqlash, xatlash hamda qaytarish yuzasidan qonun hujjatlari;
- 2) turli darajadagi taftish olib boruvchi hamda jinoiy daromadlarni qaytarish faoliyatini olib boruvchi tashkilotlar markazi;
- 3) jinoiy daromadlarni qaytarish yuzasidan texnik hamda aloqa vositalari bilan ta'minlash;
- 4) davlatlararo hamda tashkilotlar o'ttasidagi o'zaro aloqa va hamkorliklar.

Rivojlangan Yevropa mamlakatlarida jinoyat natijasida orttirilgan mulklarni qaytarishda maxsus musodara qilishning quyidagi turlari amalda bo'ladi, xususan:

- jinoiy ishi qo'zg'atilgandan so'ng;
- jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar yoki alohida holatlarda;
- mulknii xatlash hamda taqiqqa olish.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida naqd pul muomalasini nazorat qilish qoidalarini buzgan taqdirda 10 000 yevrodan ortiq miqdordagi pul mablag'lariiga taqiq qo'yishi mumkin. Ushbu chora terrorizmni moliyalashtirish, pul yuvish va giyohvand moddalar bilan qonunga xilof muomala qiluvchilar manfaati uchun faoliyat yurituvchi shaxslarning naqd pullarni noqonuniy tashishlarini oldini olishga qaratilgan.

Jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshirish maqsadida YEI mamlakatlari jinoyatchilarga nisbatan huquqiy normalarni doimiy ravishda kuchaytirib boradilar, jinoyatlardan olingen daromadlarni musodara qilish qoidalari va taomillari soddallashtirib borilmoqda.

Hozirgi vaqtida Yevropa qonunchiligiga yangi turdag'i jinoiy qilmishni nazarda tutuvchi qoidalarni kiritilishi rejalashtirmoqda, ushbu qoidalarni shaxsning xarajatlari uning daromadiga nomutanosib bo'lsa, ya'ni mulkka egalik huquqini asoslashning imkonii yo'q bo'lsa, aybdorga aloqador bo'lgan boshqa shaxslar jinoiy turmush tarziga ega degan taxminga borish mumkinligini nazarda tutmoqda.

Jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan mulknii olib qo'yish va musodara qilish, aktivlarni qaytarish tartib-qoidalarni soddallashtirish va umumiylashtirishga qaratilgan, Yevropa Parlamenti va Yevropa Kengashi tomonidan qabul qilingan jinoyat qurollari va jinoyatlardan olingen daromadlarni muzlatish va musodara qilish to'g'risida 2014-yil aprel oyida qabul qilingan 2014/42/YEI direktivasiga to'xtalib o'tish lozim. Mazkur hujjat milliy iqtisodiyot va ushbu sohadagi tartib taomillarni va standartlarni belgilaydi[3].

Ushbu ustuvor hujjatning 4-moddasiga muvofiq, Yevropa Ittifoqi davlatlaridan jinoyat vositalarini va ularning daromadlarini qisman yoki to'liq ravishda musodara qilinishini ta'minlash uchun barcha zarur chorallarni ko'rishni talab qiladi, xususan jinoyat ishi doirasida shaxsni gumon qilinuvchi, ayblanuvchi hamda sudlanuvchi tarzda jalb qilishning imkonii bo'lmaganda, vafot etgan yoki boshqa holatlarda jinoiy daromadlarni qaytarishga qaratilgan chorallarni ko'rishni amaliyotga tadbiq etadi.

Shuningdek, qonun a'zo davlatlardan uchinchi shaxslarga yashirish va musodara qilinishidan qochish uchun berilgan mol-mulkini qaytarib olish huquqidan mahrum etgan holda, musodara qilish bo'yicha qonunchilik normalarini joriy etish talab qilinadi.

Direktivada huquqni muhofaza qiluvchi idoralar musodara qilishni "ehtiyot chorasi" sifatida qo'llanilishini ko'zda tutadi, balki Qonunda musodara masalalari orasida a'zo davlatlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita mol-mulk qiymati shaxsning daromadiga to'g'ri kelmasa, aktivlar ma'lum bir jinoyat natijasida egallangan degan qaror asosida xatlanadi va taqiqqa olinadi.

Unga ko'ra, davlatlar talon-toroj etilgan mulk bo'yicha tergov va sud jarayoni tugaganidan keyin ham jinoiy protsessual harakatlarni davom ettirish uchun huquqiy shart-sharoitlarni yaratib

berishlari kerak. Xususan, 9-moddaga asosan sudlov idoralari hamda boshqa huquqni muhofaza qilish idoralaridan tashqari, moliyaviy aktivlarni, qimmatli qog'ozlarni, ko'chmas mulkni, korxonalarini va boshqalarni boshqarish bo'yicha maxsus bo'linmalar yordamida ham hal qilish mumkin.

Yevropa Ittifoq tajribasiga ko'ra, offshor bilan bog'liq siyosat valyutani noqonuniy olib chiqib ketishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi choralarda o'z ifodasini topadi. Mazkur choralar "Panama hujjatlari" e'lon qilingandan so'ng joriy qilinib qo'yidagilarni o'z ichiga oladi:

Moliyaviy tuzilmalar orqali noqonuniy topilgan daromadni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi Yevropa Ittifoqining 2015/849 – sonli Direktivasi;

Benefitsiar mulkdor hamda moliyaviy javobgar shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlovchi Yevropa Ittifoqining 2015/847 – sonli Reglamenti;

Noqonuniy topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi 2018/843 – sonli Yevropa Ittifoqining beshinchি Direktivasi;

Yuqorida ko'rsatilgan hujjatlardan asosiysi Yevropa Ittifoqining beshinchি Direktivasi hisoblanib, offshor orqali kelayotgan tahdidlarga qarshi kurashishda quyidagi choralarini o'z ichiga oladi:

transmilliy korxonalar to'g'risidagi ma'lumotlar manbasini jamoatchilik foydalanishi uchun ochiq tartibda joylashtirish;

Yevropa Ittifoqi moliyaviy razvedka tuzilmalarining vakolatlarini kengaytirish orqali tijorat siriga taalluqli bo'lgan ma'lumotlarga yo'l ochib berish;

moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda uchinchi tomon to'g'risidagi ma'lumotlarga qo'yiladigan talablarni kuchaytirish;

risk yuqori bo'lgan davlatlar ro'yxatini shakllantirib borish;

Yevropa Markaziy banki hamda nazorat organlari o'tasida ma'lumotlar almashinuv tizimini jadallashtirish hamda ortiqcha to'siqlarni kamaytirish;

banklar tomonidan "Know Your Client" "O'z mijozingni aniqla" tartibiga o'zgartirish kiritish orqali bank operatsiyalarida shaffoflikni ta'minlash;

siyosiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan tashkilotlar va shaxslar reyestagini tashkil etish va ular tomonidan amalga oshirilayotgan moliyaviy operatsiyalarni korrupsiyaviy jinoyatlar kesimida o'rganib chiqish;

davlat idoralari foydalanishi uchun yagona bank hisoblari manbasini tashkil qilish hamda bank siri amaliyotini qisqartirish;

Yevropa Ittifoqi hududida ko'chmas mulk va boshqa nokapital ko'rinishidagi boyliklarning egalari to'g'risida davlat idoralari foydalanishi uchun ma'lumotlar manbasini tuzib chiqish.

Shuningdek, mazkur Direktivaga muvofiq offshor korxonalarga nisbatan mavjudlik talabi qo'yilmoqda. Bunga ko'ra, mamlakatga investitsiya kiritayotgan yoki offshor qo'shma korxona sifatida faoliyat yuritayotgan subyektlar ro'yxatdan o'tgan hududlarida faoliyat yuritishi majburiyligi belgilab qo'yilgan. Korxona mazkur talabga javob bermagan holatda ularga nisbatan taqiq choralar qo'llanilib kelinmoqda.

Shuningdek, 2018-yilda Yevroparlament tashabbusi bilan mas'ul moliyaviy tashkilotlar, Markaziy bank hamda moliyaviy razvedka idoralari ishtirokida ishchi guruh tashkil qilingan bo'lib, mazkur ishchi guruhning vazifalaridan biri offshor hududlarni doimiy ravishda tahlil qilib borish hamda yuqori risk mavjud bo'lgan hududlar deb tan olinib, ma'lum bir ruxsatnomalar asosida hamkorlik olib boriladi. 43 hududga nisbatan erkinlik joriy qilingan.

Bundan tashqari, Yevropa mamlakatları tomonidan kapitalning benefitsiar mulkdorini aniqlash hamda Yevropa Direktivasining talablarini amalga oshirish maqsadida keng jamoatchilik nazorati uchun onlayn tarzda korxonalar to'g'risida ma'lumotlar berib kelinadi. Mazkur ma'lumotlar quyidagi saytlarda o'z ifodasini topgan:

Fransiya <https://www.sirene.fr>;

Shveytsariya <https://www.zefix.ch>;

Buyuk Britaniya <https://beta.companieshouse.gov.uk>;

## SIYOSAT

AQSH Delaver <https://icis.corp.delaware.gov>;

Lyuksemburg <https://www.lbr.lu>.

AQSH qonunlarida aktivlarni qaytarish bo'yicha huquqni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro hamkorlikning huquqiy asoslari Konstitutsiya, milliy qonunlar va xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

AQSH hukumati qonunlariga muvofiq sud orqali ayblanuvchiga nisbatan uning mulkini jinoyat protsessi davomida ham musodara qilishi mumkin yoki fuqarolik tartibida ham musodara qilish mumkin. Birinchi holatda ayblanuvchiga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilgan taqdirda qo'llaniladi, u vafot etgan yoki yashirinib yurgan taqdirda qo'llanilishi mumkin emas. Agar jinoyat sodir etishda uchinchi shaxslarning mulki foydalaniłgan bo'lsa, bunday holatda mulkini musodara etib bo'lmaydi. Fuqarolik tartibida musodara etishda shaxsga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish talab qilinmaydi va jinoyatchining mulki bilan cheklanmaydi. Bunday protsessual harakatlarning afzalligi yashirinib yurgan jinoyatchilar yoki uchinchi shaxslarning mulkiga nisbatan qo'llanilishidadir. Umumiy qoida sifatida, fuqaroviy musodara qilish jinoyat bilan bevosita bog'liq bo'lgan mulkka nisbatan qo'llaniladi.

AQSH Qonunlar to'plamining 18-bandи va 21-bandlariga binoan, agar hukm chiqarilgan paytda mulk musodara qilinadigan bo'lsa:

- 1) mulkni aniqlashning imkonini bo'lmasa;
- 2) uchinchi shaxsga topshirilgan yoki sotilgan bo'lsa;
- 3) sudning sudloviga tegishli bo'lgan hududdan chiqib ketgan bo'lsa;
- 4) hajmi sezilarli darajada qisqartirilgan bo'lsa;

5) boshqa mol-mulk bilan aralashgan holda, uni ajratib bo'lmaydigan holda, sud ayblanuvchining ekvivalent qiymatidagi har qanday mol-mulkini musodara qilish bo'yicha qaror qabul qilishga haqlidir[4].

Elektron eshitish. AQSH qonunlar to'plamining "Elektron aloqalarni va og'zaki xabarlarini olish" deb nomlangan 18-bo'limining 119-bobi huquqni muhofaza qilish organlariga texnik vositalardan foydalangan holda barcha turdag'i aloqa vositalaridagi o'zaro xabar almashinuvi va telefon so'zlashuvlarini eshitish, yozib olish yuzasidan tadbirlar o'tkazish huquqini beradi[5].

Kanadaning Jinoyat-protcessual qonuni olib qo'yish va tintuv o'tkazish bo'yicha o'zaro huquqiy yordam yuzasidan amalga oshirilgan protsessual jihatlari bilan ahamiyatlidir. Ushbu masalalar jinoyat ishlar bo'yicha o'zaro yordam to'g'risida Qonun (1988 y.) bilan batafsil tartibga solinadi[6].

Mazkur qonunga ko'ra, Kanada tomonidan mulkni qidirish va olib qo'yish bo'yicha ko'rsatmalarning bajarilishi quyidagi murakkab bosqichlardan iborat jarayondir:

- 1) Kanada Adliya vaziri tomonidan tintuv va olib qo'yish talabini ma'qullanishi;
- 2) Kanada vakolatli organlari tomonidan provinsiya sudiga tintuv uchun sanksiya berish to'g'risidagi murojaatnomasi;
- 3) tintuv o'tkazishga ruxsat berish to'g'risida order berish va uni ijro etish uchun xalqaro bo'lim xodimiga topshirish;
- 4) ijro;
- 5) ijro etilishi to'g'risidagi hisobotni Kanada Adliya vaziriga yuborish;
- 6) tintuv natijalari bo'yicha sud muhokamasi;
- 7) so'rovnama yuborgan davlatga tintuv o'tkazilganligi bo'yicha yig'ilgan materiallarni yuborish.

Aktivlarni qaytarish masalalari bo'yicha, Kanada qonuni mulkka nisbatan manfaati bo'lgan jinoyat jabrlanuvchilariga, agar bunday manfaat Kanada sudi tomonidan tasdiqlangan hamda bu to'g'risida hukm chiqargan bo'lsa, uni qaytarish orqali o'zlashtirishga ruxsat beradi. Bundan tashqari, jinoyat ishi bo'yicha tergov yoki sud jarayonida musodara qilingan yoki muzlatilgan har qanday mulk istalgan vaqtida o'z egasiga qaytarilishi mumkin.

Avstraliya moliyaviy razvedka agentligi jinoi daromadlarni tezkor kuzatib borishda asosiy rol o'ynaydi. Mamlakatdagi bank va moliya institutlari shuhbali operatsiyalar va kassa operatsiyalarini to'g'risida mazkur idoraga doimiy hisobot berishlari shart va agentlik esa maxsus xizmatlar bilan birgalikda olingan ma'lumotlarni Avstraliya va chet davlatlarda daromadlarning xavfsizligi va ularni hisobga olishdan foydalananadilar.

Noqonuniy orttirilgan mablag'lar va mulkni tezkorlik bilan qaytarilishini ta'minlash maqsadida 2002-yildagi "Jinoiy daromadlar to'g'risida"gi qonuni qabul qilinib, ushbu qonunda jinoiy aktivlarni qidirish, olib qo'yish va musodara qilish tartibi nazarda tutilgan. Bundan tashqari qonunda Avstraliyaning yurisdiksiyasida bo'lgan har qanday jinoyat yuzasidan xorijiy davlatning vakolatlari organlari Avstraliya sudlariga tegishli fuqarolik ishini qo'zg'atishi uchun fuqaroviylar da'vo kiritishi mumkin. Shuningdek, mazkur qonunga asosan "mablag'larni adolatli taqsimlash" sxemasi ko'zda tutilgan bo'lib, unga binoan tegishli tartibda jinoiy daromadlarni xorijiy davlatga qaytarish bilan bog'liq harakatlar amalga oshiriladi, ular keyinchalik jinoyatdan zarar ko'rgan jabrlanuvchilarga kompensatsiya to'lashda foydalanishi mumkin[7].

Yaponiyada aktivlarni qaytarish vositasi bu "musodara qilish" protsessual tergov harakatidir.

Yaponiya Jinoyat kodeksining 9-moddasiga ko'ra, "musodara qilish", jinoyatlar uchun belgilangan tartibda tayinlanadigan jazoning qo'shimcha shaklidir. Jinoyat kodeksining 19 va 19-2-moddalarida, ushbu qoidalar quyidagicha aks etgan:

Musodara qilish (19-modda)

Quyidagi predmetlar musodara qilinishi mumkin:

1) jinoyatning ajralmas elementi bo'lgan predmet;

2) jinoyat sodir etishda qo'llanilgan yoki foydalanishga mo'ljallangan narsa;

3) jinoiy qilmish sodir etilishi natijasida orttirilgan narsa yoki jinoyat sodir etib, uning evaziga kompensatsiya sifatida olingan narsa;

4) xuddi shu kabi jinoyat natijasida orttirilgan buyumga almashtirish natijasida qo'lga kiritilgan narsalar.

19-2-modda. (Ekvivalent qiymatdagi narsalarni olib qo'yish) Agar oldingi moddaning 3 - 4 - bandlarida ko'rsatilgan buyumning bir qismi yoki barcha qismini musodara qilishning imkonii bo'lmasa (yo'q bo'lib ketgan), ularning qiymatiga teng bo'lgan pul summasi olinishi mumkin" [8].

Yaponiya qonunchiligiga binoan musodara qilish nafaqat jinoyat sodir etganlik uchun qo'shimcha jazo sifatida, balki fuqaroviylar huquqiy qonunlarni buzilgan taqdirda ham qo'llanilishi mumkin.

Shu sababli, xorijiy davlatning vakolatlari organlaridan musodara qilish to'g'risida so'rov nomalari kelib tushganda, u dastlab Yaponiya (qaysi organi) tomonidan o'rganilib, jinoyat yoki boshqa qilmish ekanligi aniqlanadi. Agar fuqarolik huquqiy tartibda musodara qilish zarurati paydo bo'lsa, xorijiy davlatning kompetent organlari noqonuniy o'tkazilgan mablag'larni qaytarib berish uchun fuqaroviylar da'vo qo'zg'atish huquqiga ega.

Jinoyat sodir etilganligi munosabati bilan musodara qilish to'g'risida so'rov kelib tushgan barcha hollarda, u qondirilishi mumkin, ammo pul, narsalar va mulklar so'ralayotgan davlatga barcha hollarda ham yuborilmasligi mumkin.

Ammo, "Tergov harakatlarini o'tkazishda xalqaro huquqiy yordam to'g'risida"gi (1980 yildagi 69-sonli) Qonun[9] huquqni muhofaza qilish organlariga ashyoviy dalillar ahamiyatiga ega bo'lgan mulkni shaxs ixtiyor ravishda berishi yoki orderga asosida olib qo'yilishi hamda uni so'rov yuborgan davlatga topshirishi mumkin (faqat moddiy obyektlar yuzasidan olib boriladigan ishlarda).

Yaponiya jinoyat protsessual qonunchiligiga asosan, tergov idoralari jinoyatga aloqador mulkni musodara qilinishi yuzasidan sudning ajrimi chiqarilgunga qadar ham olib qo'yishi mumkin. Bundan olib qo'yish mulkning xavfsizligini ta'minlash uchun amalga oshirilishi mumkin.

Jinoyat ishida dalil bo'lgan ashyoviy dalillarni saqlashga ehtiyoj qolmasa, ular egalariga qaytariladi. Shu bilan birga, noqonuniy ravishda olingan narsalar, buning aniq asoslar bo'lgan taqdirda, jabrlanganlarga qaytariladi.

Bundan tashqari, olib qo'yilgan buyumlar egalik qilish huquqiga ega boshqa shaxslarga ham qaytarilishi mumkin (masalan, sotib olingan shaxs), agar ushbu buyumlarning haqiqiy egalari mulkni o'ziga qaytarilishini talab qilish huquqididan voz kechsa. Bunday hollarda, narsalar chet elda bo'lsa ham, ularni tasarruf etish huquqiga ega bo'lgan shaxsga qaytarilishi lozim.

Isroiil jinoyat qonunchiligiga binoan musodara qilish sudning hukmiga asosan jinoyat sodir etganlik uchun tayinlangan jazo turlaridan biridir. Aktivlarni qaytarish va musodara qilish yuzasidan xalqaro huquqiy protsessual harakatlarni amalga oshirish 1998 yildagi "Xalqaro huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risida"gi qonunga muvofiq amalga oshiriladi. Unga ko'ra:

"Isroiil vakolatlari idoralari tomonidan boshqa davlatning vakolatlari idoralari uchun nisbatan o'zaro xalqaro huquqiy yordam ko'rsatish Isroiil qonunchiligidagi qanday nazarda tutilgan bo'lsa, shu tarzda

## SIYOSAT

amalga oshiriladi. Ushbu qonunda boshqa holatlar nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu harakatlarni amalga oshirish sudning belgilangan ajrimlari bilan amalga oshiriladi;

murojaat qilgan davlatning iltimosnomasida protsessual harakatlar qay tarzda amalga oshirish so'ralgan bo'lsa, Isroil sudi tomonidan ham shu tarzda amalga oshirish bo'yicha ruxsat beriladi;

agarda amalga oshirish so'ralayotgan harakatlar jinoyat ishi doirasida bo'lsa, unda ushbu qonunning qoidalari Isroil jinoyat qonunchiligiga asosan qanday protsessual harakatlar amalga oshirish belgilangan bo'lsa, shu tarzda bajariladi” [10].

O'zaro huquqiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq harakatlarni bajarish uchun vakolatli sud, qoida tariqasida, xalqaro suddir.

Qonunga asosan aktivlarni qaytarilishi to'g'risidagi arizani ko'rib chiqqan sud ularni murojaat etayotgan mamlakatga topshirish to'g'risida ajrim chiqarishga haqlidir.

Sud aktivlarni qaytarilishi to'g'risidagi ajrimda ishning batafsил tafsiloti, maqsadi, qaytarilishi sharoiti, muddati, mulkning Isroilga qaytarilishi kerak bo'lgan muddat va buyum qaytarib berilgandan keyin kimga berilishi to'g'risida ma'lumotlar yozilgan va ushbu shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatadi. Shuningdek, sudda o'z huquqini himoya qilayotgan shaxs agarda qarshilik bildirsa, sud vakolatli organning iltimosiga binoan ushbu narsani Isroilga qaytarishni rad etishga ham haqlidir.

Isroildan qaytarilishi lozim bo'lgan aktiv, agarda u qaytarish uchun asosli deb topilsa, vakolatli organ ushbu buyumni qaytarilishi muddati, qaytarilishi shart-sharoitlarini ma'lum qiladi. Vakolatli organ so'ralayotgan mamlakat nomidan ko'rsatilgan shartlarni bajarish majburiyatini olmaguncha aktivlarni qaytarilishini kechiktirishga haqli (20-modda).

Aktivlar qaytarilgandan so'ng, vakolatli organ uni olib qo'yilgan shaxsga topshiradi yoki sud qaroriga binoan boshqa harakat qiladi.

Ushbu bandga binoan boshqa davlatdan Isroilga qaytarilgan narsa topshirishdan oldingi holatda qanday bo'lsa, shu holatda qaytarilishi kerak, biror kim boshqacha da'vo qilsa, buni isbotlashi lozim.

Agar boshqa davlat Isroildagi mol-mulkni musodara qilish to'g'risida Isroilga yuborilgan huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi so'rovni bajarishni talab qilsa, vakolatli organ okrug prokurori orqali mol-mulk joylashgan yoki uning bir qismi joylashgan okrug sudiga murojaat qilishga va ushbu xorijiy davlat qarorining bajarilishini so'rashga haqlidir.

Sud xorijiy davlatning musodara qilish to'g'risidagi so'rovini bajarish to'g'risida ajrim qabul qilishga haqli va bunday ajrim qabul qilingan paytdan boshlab, musodara qilish to'g'risidagi qaror Isroil sudining ajrimi kabi yuridik kuchga ega bo'ladi.

Sud ushbu mol-mulkka bo'lgan huquqlarini da'vo qilgan shaxsga, agar mavjud bo'lsa, tegishli dalillarini bayon qilmasdan turib, musodara qilish to'g'risidagi buyruqni bajarish to'g'risida qaror qabul qilmaydi.

Agar sud chet mamlakatning xatlovga olish hamda qaytarish yuzasidan huquqiy yordam bo'yicha so'rovini bajarishni qonuniy deb topsa, maxsus davlat tashkilotiga xabar beradi.

Agar sud boshqa davlatning iltimosiga binoan musodara qilish bo'yicha vaqtinchalik ajrim chiqarsa, u amal qilish muddatini ko'rsatadi va bu muddat olti oydan oshmasligi kerak.

Agar chet el sudida sud jarayoni boshlanmagan bo'lsa yoki sud jarayoni vaqtinchalik so'rovnama muddati o'tgunga qadar tugamagan bo'lsa, ushbu qarorni qabul qilgan sud ushbu muddatni xorijiy mamlakatning so'rovi asosida tuman prokurori iltimosnomasi bilan uzatilgan kundan boshlab olti oydan oshmagan muddatga uzaytirish huquqiga ega (36-modda).

Okrug prokurorining iltimosnomasi xorijiy davlat sudi instansiyanining xabarnomasi bilan yuboriladi; Xabarnomada muddatni uzaytirish to'g'risida qaror chiqarilishini asoslaydigan sabablar, so'ralayotgan mamlakatda sud jarayonlari tugashining taxminiy muddatlari ko'rsatiladi[11].

Shveysariya Konfederatsiyasining qonunlar to'plami konstitutsion, ma'muriy, jinoiy va jinoiy protsessual, fuqarolik va boshqa huquq sohalarini o'z ichiga olgan amaldagi qonun hujjatlari to'plamidir. Mazkur qonun hujjati huquq sohalarining aniq taqsimlangan kodifikatsiyalanganligi bilan tavsiflanadi.

Ushbu tadqiqot mavzusi bilan bog'liq bo'lgan Shvetsariyaning jinoiy-huquqiy institutlari majmuidan quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) Mulkni yoki pul mablag'larini musodara qilish maxsus musodara qilish institutining analogidir;

2) Xavfli narsalarni musodara qilish (Shveytsariya Jinoyat kodeksining 58-moddasi.);

3) Sovg'alar va boshqa moddiy manfaatlar to'g'risidagi da'vo Shveytsariya Jinoyat kodeksining 59-moddasida ko'rsatib o'tilgan[12].

Umuman olganda, Shveytsariya Konfederatsiyasi va kantonlarining jinoyat protsessi ko'rib chiqilayotgan protsessual funksiyalarni amalga oshirishga qaratilgan izchil tizimni belgilaydi, jumladan:

1. Bevosita pul mablag'lari va mol-mulkni tergov o'tkazish yo'li bilan qidirish tegishli sudning vakolati bilan amalga oshiriladi. Ushbu protsessual jarayonlar dalillarni to'plash, guvohlarni so'roq qilish, yuzlashtirish, ekspertiza tayinlash va o'tkazish, olib qo'yish, tintuv va boshqa tergov harakatlari bilan amalga oshiriladi. Ushbu choralar, o'z mohiyatiga ko'ra, Yevropaning ko'plab davlatlaridagi protsessual tartibga asosan sud qarorlari yoki ajrimlari bilan amalga oshiriladi;

2. Dalil sifatida xizmat qilishi mumkin bo'lgan taqiq qo'yilgan hujjatlar, narsalar va boyliklar keyinchalik "tekshirish uchun taqiqqa olingan" yoki jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan maqomini oladi;

3. Musodara qilish mulkni keyinchalik Shveytsariya Konfederatsiyasi yoki kantonlarning daromadlari o'tishini nazarda tutadi (agar protsessual jarayonlar kanton ma'muriyati tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa);

4. Shveytsariya qonunchiligiga asosan saqlash uchun taqiqqa solingen ashyolar yoki boyliklarni tasarruf etish huquqiga ega bo'lgan shaxsga qaytarish imkoniyati ko'zda tutilgan. Ushbu chora "jinoyat yoki huquqbazarlik quroli" deb topilgan va jabrlanuvchiga tegishli hujjatlar, narsalar va qimmatbaho narsalarga nisbatan tadbiq etiladi.

1981-yil 20-martdagi Jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro huquqiy o'zaro yordam to'g'risida Federal qonunning 28-moddasi (Xalqaro jinoiy huquqiy yordam to'g'risida qonun)ga asosan xalqaro huquqiy yordam Shveytsariya Konfederatsiyasi tomonidan faqatgina xorijiy davlatlar vakolatli organlarining yozma so'rovleri asosida taqdim etiladi.

Shaxslar yoki binolarda tintuv o'tkazish, narsalarga taqiq qo'yish va olib qo'yish hamda topshirish to'g'risidagi so'rovlarda ularning qaytarilishi qonuniyligini tasdiqlovchi holatlar aks etgan bo'lishi lozim[13].

Niderlandiya Qirolligining Jinoyat kodeksida jinoyat sodir etganlik uchun sanksiyalar tizimida asosiy, qo'shimcha jazolar hamda majburlov choralar ko'zda tutilgan.

Har qanday jinoyat uchun tayinlanadigan qo'shimcha va asosiy jazolardan biri bu mol-mulkni musodara qilishdir. Shu ta'kidlash lozimki barcha holatlarda ham shaxsning mulkini musodara qilishga yo'l qo'yilmaydi, faqatgina Jinoyat natijasida olingan mol-mulk, jinoyat qurollari va vositalarinigina musodara qilishga yo'l qo'yiladi.

Aktivlarni qaytarishda huquqiy yordam ko'rsatish, qoida tariqasida, uning tashkil etilishi va to'liqligi uchun javobgar bo'lgan prokuratura xizmatiga yuklatilgan. Talab qilingan tezkor-qidiruv va protsessual harakatlarni bajarilishini ta'minlash uchun tegishli prokuror quyidagilarga topshiriq berishi mumkin:

- prokuratura xizmatining o'ziga;
- politsiyasining tegishli tergov bo'linmalariga;

- alohida jinoyatlar yuzasidan tezkor qidiruv faoliyatini olib boruvchi maxsus vakolatlari organlarga. Ulardan eng mashhurlari: Iqtisodiyot vaziriga bo'ysungan Moliyaviy tekshirish xizmati va Iqtisodiy tergov xizmati[14].

Gollandiya jinoyat protsessual qonunchiligiga asosan Prokuratura xizmati jinoyatlar uchun jinoiy taqibni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan yagona organdir. Jinoyatlarni tergov qilish va protsessual harakatlarni amalga oshirishda politsiyaning tergov bo'limlari va sudga qadar tergovni amalga oshiruvchi boshqa organlar prokuror nomidan ushbu vakolatlarni amalga oshiradi, chunki prokuror tergov jarayonlari uchun mas'ul hisoblanadi.

Ushbu idoralarni barchasi dastlabki tergov shaklida jinoiy ishlar bo'yicha xalqaro iltimosnomalar bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatishni amalga oshiradilar.

Gollandiyada jinoiy yo'l bilan olingan pul va mol-mulkni qidirish va taqiqqa solish uchun ko'pincha Jinoyat-protcessual kodeksida ko'zda tutilgan jinoiy tergovning maxsus shakli – "moliyaviy tergov" o'tkaziladi, uning maqsadi gumon qilinuvchining daromadini (noqonuniy daromad) aniqlash va dalillarni to'plashdir.

## SIYOSAT

Jinoiy yo'l bilan topilgan pul va mulkni aniqlash maqsadida o'tkazilayotgan tergov jarayonida zarur dalillar to'plangan. Niderlandiya JPKga muvofiq, ushbu protseduralar paytida guvohlarning ko'rsatmalari, ekspert xulosalari, yozma dalillar to'planadi. Yozma dalillar turli xil hujjatlar bo'lishi mumkin.

Tergov natijalariga ko'ra, sud musodara qilish to'g'risida ajrim qabul qiladi. Shu bilan birga, jinoyat ishi bilan bog'liq narsalar (jinoiy yo'l bilan orttirilgan, shuningdek dalil ahamiyatiga ega narsalar) yuborilayotgan davlatga maxsus so'rovsiz topshirilishi mumkin.

Bundan tashqari quyidagi holatlarda ham narsalar so'ralayotgan tomonga talab qilinmagan bo'lsa ham yuborilishi mumkin:

- bu haqda qo'shimcha iltimosnomaning taqdim qilinishi;
- uchinchi shaxslarning huquqlarini kafolatlashning ta'minlanganligi;
- muayyan sharoitlarga ko'ra topshirilayotganda – zudlik bilan Gollandiya tomonga, uning iltimosiga binoan qaytarib berish.

Gollandiya qonunlarida tan olish qoidalari tizimi mavjud emas va xorijiy sud qarorlarini avtorizatsiya qilishning umumiy tartibi ko'zda (nazarda) tutilmagan (ekzekvatura). Gollandiyada xorijiy sudlarining qarorlari xalqaro shartnoma (konvensiya) yoki milliy qonunchilikda nazarda tutilgan taqdirda tan olinadi.

Gollandiyalik xalqaro huquq professorlari T.M. De Boyer va R.Kotting xorijiy davlat sud qarorlarini tan olish va ijro etish masalalarini o'rjanib, ushbu jarayonning quyidagi xususiyatlarini ko'rsatib o'tishgan.

Tomonlar faktlarga nisbatan yangi sud muhokamalarini talab qiladigan xorijiy qaror bilan bog'liqmi yoki yo'qmi degan savolni hal qilish uchun sudlar odatda uchta mezonni qo'llashadi.

Birinchidan, qaror tegishli yurisdiksiyaga taalluqli bo'lgan sud tomonidan qabul qilinishi kerak. Qaror qabul qilishda Gollandiya yurisdiksiya qoidalari emas ushbu yurisdiksiyadagi tegishli xalqaro standartlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xalqaro shartnomalarning yurisdiksiya qoidalariда rahbariy qoidalari ko'rsatib o'tilgan.

Ikkinchidan, xorijiy davlatlarning sud qarorlari Gollandiya davlat siyosatiga zid bo'lmasligi lozim. Bu shuni anglatadiki, Gollandiya sudi tomonidan qo'llaniladigan qoidalardan farq qiladigan qonunni qo'llash huquqi davlat siyosatining buzilishi deb hisoblanmaydi va chet el qonunchiligining mazmuni faqat eng istisno holatlarda qabul qilinishi mumkin emas.

Va nihoyat, xorijiy davlat qarori tegishli tartib-qoidalalar asosida amalga oshirilishi kerak. Ushbu protsessual standart sudlanuvchini o'z vaqtida himoyaga tayyor bo'lishi uchun xabardor qilishni va tomonlarga o'z ishini e'lon qilish imkoniyatini beradi[15].

Rossiya Federatsiyasining huquqiy bazasiga ko'ra[16], offshor hududlar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi o'ndan ortiq normativ hujjatlar mavjud. Ulardan RF Soliq Kodeksi, "Nazorat qilinadigan chet el kompaniyalari to'g'risida" (2014-yil), "Valyutani tartibga solish va valyuta nazorati to'g'risida" (2003-yil), "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida" (2001-yil) Federal Qonunlarni asosiyları sifatida ko'rishimiz mumkin.

Xususan, Soliq Kodeksining 3.4 bo'limi "Yuridik shaxs bo'Imagan nazorat qilinadigan chet el kompaniyalari" deb nomlanib, bunda asosan offshor korxonalarining soliq bazasi va budgetga to'lanishi zarur bo'lgan soliq turlari belgilab berilgan. "Nazorat qilinadigan chet el kompaniyalari to'g'risidagi" Qonunga muvofiq, asosan offshor hududlardan ro'yxatdan o'tgan va RFda daromad olish bilan shug'ullanayotgan yuridik va jismoniy shaxslarni soliq intizomi belgilab berilgan.

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksiga binoan, mol-mulkni musodara qilish yoki olib qo'yish xorijiy davlat sudining qaroriga binoan mahalliy sudning ajrimi bilan amalga oshiriladi, agar bu Rossiya Federatsiyasining xalqaro shartnomasida nazarda utilgan bo'lsa yoki xorijiy davlatning vakolatli organining so'rovini ko'rib chiqish natijalariga asoslangan o'zaro kelishuv tamoyiliga asoslangan bo'lsa va tegishli hukm bo'lsagina amalga oshiriladi.

Xorijiy davlat vakolatli organi tomonidan yuborilgan hukmni tan olish va majburiy tartibda ijroga qaratilishi to'g'risidagi so'rov yoki tegishli tartibda yuborilgan va Rossiya Federatsiyasida hududida bo'lgan jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni musodara qilish haqidagi xorijiy davlat sudining qarori jinoyat sodir etgan shaxsning bo'lish yoki yashash joyiga asosan Respublika Oliy Sudi, viloyat, federal ahamiyatdagi shahar, avtonom oblast, avtonom okrug sudida ko'rib chiqishga tayyorlash uchun Rossiya Federatsiyasi Adliya Vazirligiga yuboriladi.

Agarda RF sudi RF JPKning 473.5 moddasida ko'rsatilgan asoslarga ko'ra, xorijiy davlat sudining ushbu mazmundagi qarorini majburiy tartibda ijro etilishi nomuvofiq deb topsa, ijro etishni rad etish haqida tegishli tartibda qaror chiqaradi.

Qolgan barcha holatlarda sud jinoiy yo'l bilan orttirilgan daromadlarni musodara qilish, ularni to'liq yoki qisman majburiy tartibda ijro etish haqidagi xorijiy davlat sudining hukmini tan olish to'g'risida qaror qabul qiladi, unda quyidagilar ko'rsatib o'tiladi:

1) xorijiy davlat sudining nomi, hukm chiqarilgan joy va sana, xorijiy davlat sudining qarori;

2) xorijiy davlat sudi tomonidan hukm qilingan shaxsning Rossiya Federatsiyasida oxirgi yashash joyi, ish joyi va faoliyat turi to'g'risidagi ma'lumotlar;

3) mahkum aybdor deb topilgan jinoyatning tavsifi va uning asosida sudlangan chet el davlatining jinoyat kodeksi moddasi, shuningdek mol-mulkni musodara qilish to'g'risida qaror qabul qilinganligi;

4) Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining mahkum tomonidan sodir etilgan jinoyati uchun javobgarlikni va mol-mulkni musodara qilishni nazarda tutuvchi moddasi;

5) Rossiya Federatsiyasi hududida joylashgan va musodara qilinadigan mol-mulk to'g'risidagi ma'lumotlar;

6) Jinoyat-protsessual kodeksining 45.1, 47.1 va 48.1-boqlariga asosan qaror ustidan shikoyat qilish tartibi batatsil yoritib o'tilgan.

Agar jinoiy yo'l bilan orttirilgan ma'lum bir predmetni chet el sudining jinoiy yo'l bilan olingen daromadlarni musodara qilish va majburiy ijrosi to'g'risidagi qarorining tan olinishi vaqtida uni to'liq yoki qisman amalga oshirishning imkon bo'lmasa, u holda Rossiya Federatsiyasining Jinoyat kodeksining 104.2 muvofiq, sud o'z qarorida musodara qilinuvchi predmetga to'g'ri keluvchi summani yoki boshqa mol-mulkni aniqlaydi.

Tan olish va ijo etish to'g'risidagi qonuniy kuchga kirgan sud qaroriga asosan Rossiya Federatsiyasi hududida joylashgan jinoyatlardan olingen daromadlarni musodara qilish to'g'risidagi xorijiy davlatning sud qaroriga ko'ra, sud ijo hujjati beradi, unda hukmning qaror qismi, chet el sudining hukmi va hukmni to'liq yoki qisman ijo etish haqidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak[17].

Qozog'iston Respublikasi tajribasi jinoiy aktivlarni qaytarish masalalari bo'yicha normativ-huquqiy va tashkiliy jihatdan bir qancha ijobjiy natijalarga erishgan.

Xususan, Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida xorijga chiqarilgan jinoiy aktivlarni qaytarishdagi asosiy vosita hisoblangan musodara ishini yuritish tartibi (71-bob), jinoiy sud ishini yuritish sohasida xalqaro hamkorlik (12-bo'lim), Jinoyat kodeksida esa musodara institutining huquqiy maqomi (48-modda), Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi qonunida esa noqonuniy topilgan mulklarni qaytarish (25-26-mm), korrupsiyaviy huquqbazarlik natijasida tuzilgan aktlarni haqiqiy emas deb topilishi yuzasidan munosabatlar to'liq tartibga solingan.

Jumladan, Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 667-672-moddalarida hukm chiqqunga qadar noqonuniy olingen mulknii musodara qilish ishini yuritish tartibini belgilaydi. Mazkur bobda musodara ishini qo'zg'atish, uning sud tomonidan ko'rib chiqilishi boshqa alohida holatlar yoritib berilgan.

Qozog'iston hukumati tomonidan amalga oshirilgan so'nggi islohotlarga ko'ra, jinoiy aktivlarni xorijdan qaytarish masalalarining tashkiliy mexanizmlari yanada mustahkamlandi. 2022 yil 5 iyul kuni Qozog'iston Respublikasi Prezidenti K.-J.Tuqayevning 908-son qarori bilan "Iqtisodiy resurslarning noqonuniy konsentratsiyasiga qarshi kurash bo'yicha komissiyasi" tuzildi[18]. Mazkur komissiyaning asosiy vazifasi etib mamlakat hududidan noqonuniy olib chiqib ketilgan daromadlarni qaytarish belgilandi.

Komissiya tomonidan jinoiy aktivlarni qaytarishda bir qancha ijobjiy natijalarga erishildi[19]. Jumladan, komissiya va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan sobiq president N.Nazarboyevning qarindoshlariga nisbatan olib borilgan tekshiruvlar natijasida (Kayrat Buronboyev, Kayrat Sotibaldi, uning rafiqasi Gulmira Satibaldi va boshqalar) 481 million dollarni Qozog'istonga qaytarishga muvaffaq bo'lishdi. Shuningdek, yana 170 million dollar Lyuksemburgdan ixtiyorli ravishda qaytarildi. Sobiq Milliy xavfsizlik qo'mitasi xodimlariga nisbatan qo'zg'atilgan jinoyat ishi doirasida Gonkong va BAA dan 3 million dollar qaytarilgan. Komissiyaning AQSH va boshqa davlatlar bilan to'g'ridan to'g'ri aloqalari alohida samaradorlikka ega.

Tashkiliy jihatdan Qozog'iston aktivlarni keyinchalik musodara qilish maqsadida, zudlik bilan muzlatish choralarini ko'rmoqda. Buning uchun "Egmont" moliyaviy razvedka bo'linmalari

## SIYOSAT

imkoniyatlari, "Karin" va "Arin AP" xorijiy axborot almashish tarmoqlaridan foydalanmoqda. Bundan tashqari, Jahon banki va BMTning Narkotiklar va jinoyatchilikka qarshi kurash boshqarmalari tashabbuslari (Star) bilan hamkorlik yo'lgan qo'yilgan.

Shunday qilib, jinoiy yo'l bilan qo'l kirlgan aktivlarni qaytarish bo'yicha g'arb davlatlari faoliyatini o'rganish natijasida ularning sohadagi katta tajribaga ega ekanligini, unda shaxsnинг korrasjon xatti-harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishlarini shakllantirish va fuqarolarning noqonuniy mulkclarini xatlashni ta'minlash, aktivlarni qaytarish uchun keng tizim yaratish kabi jamiyatning turli sohalariga taalluqli ishlarni qurish sxemalari yaratilganligini ko'rish mumkin.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Nemcov Y.I., Arjanova I.M.. Postroyeniye sistemi vozvrata aktivov v zarubejnix gosudarstvax (na primere stran YES) / Ekonomicheskaya i finansovaya bezopasnost. 1/2017. st. 56-63.
2. Forsyth J., Irving B., Nanopoulos E., Fazekas M. Study for an Impact Assessment on a Proposalfor a New Legal Framework on the Confiscation and Recovery of Criminal Assets. DRR-5380-EC. FinalReport Prepared for the European Commission Directorate General Home Affairs Published 2012 by the RAND Corporation//http://ec.europa.eu/home-affairs/doc\_centre/crime/docs/RAND%20EUROPE%-20Study%20Final%20Report.pdf //
3. Directive 2014/42/EU of the European Parliamentand of the Council of 3 April 2014 on the freezing andconfiscation of instrumentalities and proceeds of crimein the European Union) http://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=uriserv:OJ.L\_.2014.12-7.01.0039.01.ENG&toc=OJ:L:2014:127:TOC
4. «Federal Criminal Code and Rules» / Title 18 – Crime and Criminal Procedure, Title 21 – Food and Drugs(amendment received to February 15, 1999), West Group, St. Paul, Minn, 1999.–r.761-764.,r.1203-1206
5. «Federal Criminal Code and Rules» / Title 18 – Crime and Criminal Procedure (amendment received to February 15, 1999), West Group, St. Paul, Minn, 1999.–r.840-857
6. Office Consolidation. Extradition Act. S.C. 1999, c.18. Mutual Legal Assistance in Criminal Matters Act. R.S., 1985, c.30 (4th Supp.) October, 1999
7. <https://www.legislation.gov.au/Details/C2018C00090//Federal Register of Legislation.Proceeds of Crime Act 2002>
8. Ugolovniy kodeks Yaponii. - The Penal Code of Japan (Law No. 45 of 1907, as amended by Law No. 77 of 1921, Law No. 61 of 1941, Law No. 124 of 1947, Law No. 195 of 1953, Law No. 57 of 1954, Law No. 107 of 1958, Law No. 83 of 1960, Law No. 124 of 1964, Law No. 61 of 1968, Law No. 30 of 1980, Law No. 58 of 1987, Law No. 31 of 1991
9. Zakon o mejdunarodnoy pravovoy pomoshi v proizvodstve rassledovaniya. - Law for International Assistance in investigation (Law № 69 of 1980). / Law concerning Extradition and International Assistance in Criminal Matters (Translation). - Ministry of Justice, Japan, 1988. – p. 15 - 20
10. Zakon o mejdunarodnoy pravovoy pomoshi 1998 g. - International Legal Assistance Law, 5758-1998 / Translation to English of Israel's New International Legal Assistance Law (entered into effect on 7 February 1999). – p. 6
11. st. 19-34 zakona O mejdunarodnoy pravovoy pomoshi 1998 g. - International Legal Assistance Law, 5758-1998 / Translation to English of Israel's New International Legal Assistance Law (entered into effect on 7 February 1999). – p. 6
12. Le code penal suisse, RS 311.0, 21.12.1937 g
13. Loi federale sur l'entraide internationale en matiere penale (Loi sur l'entraide penale internationale [EIMP]). LF 351.1 RO 1982 846. Art. 28, 76
14. Zakon «Ob organizatsii sudebnogo korpusa» Korolevstva Nederlandov 1838 g
15. Volevodz A.G., Solov'yev A.B./ Mejdunarodniy rozisk, arest, konfiskatsiya i peredacha inostrannim gosudarstvam denejnix sredstv i imushestva, poluchennix prestupnim putem, a takje veshestvennix dokazatelstv po ugolovnim delam. – M.: Izdatelstvo «Yurlitinform», 2007. – 440 s. ISBN 978-5-93295-310-5, st.173-184
16. [www.consultant.ru](http://www.consultant.ru)
17. Ugolovno-protsessualniy kodeks Rossiyskoy Federatsii ot 18.12.2001 N 174-FZ (red. ot 24.04.2020)/ [http://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_34481/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34481/)
18. <https://online.zakon.kz/dokument>
19. [www.currenttime.tv/a/sretskomissiva-o-vozvrate-v-kaznu-kazahstana/okolo/48mln/](http://www.currenttime.tv/a/sretskomissiva-o-vozvrate-v-kaznu-kazahstana/okolo/48mln/) 31948092